

Magistrantlarning XVII ilmiy konferensiyasi materiallari. Samarqand – 2017-yil.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRANTLARNING XVII-ILMIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

(TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR)



Samarqand-2017

Magistrantlarning XVII-ilmiy konferensiyasi materiallari (Tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar). – Samarqand: SamDU nashri, 2017. ____ – bet.

To'plamga magistrantlarning XVII ilmiy konferensiyasida muhokama qilingan tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishidagi eng dolzarb ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy ma'ruzalar materiallari kiritilgan.

To'plam talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar va tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

k.f.d. A.J.Xoliqov

Nashr uchun mas'ul:

dots. Z.P.Raxmanova

Taqrizchilar:

prof. A.A.Soleyev
dots. R.M.Eshbo'riyev

MUNDARIJA

Husniddin Amrillayev Informatika fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol usullardan foydalanish samaradorligi	
Yuldosh G'aybulov, Amrillayev Husniddin Xususiy integrali parabola ko'rinishda bo'lgan kvadratik sistemani tuzish	
Eldor Xo'rozov. XVI asr epik she'riyatida Alisher Navoiy an'analari	
Ahmad Xasanov. "Lolazor" romanida badiiy xarakter talqini	
Sirojiddin Sharifov. "Muvozanat" romanida qahramon portreti	
Nilufar Tinchlikova. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida Abdurahmon Jomiy timsoli	
Bobir Ruziboyev. Inson ruhiyatini aks ettirishda peyzaj tasvirining o'rni.....	
Oxista Xushnazarova. "Hotamnoma" asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	
Charos Xushmurodova. Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida metaforalar muhim uslubiy vosita sifatida.....	
Charos Xushmurodova. Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida vulgarizmlarning qo'llanilishiga doir.....	
G'olibjon Nuraliyev. Tasviriy so'zlarning bugungi kunda o'rganilishi.....	
Bobur Sulaymonov. Istiqlol davridagi o'zbek tilining leksik sathi to'g'risida	
Yulduz Qurbonova. Dialogda personaj subyektiv munosabati shakllanishining pragmatik xususiyatlar.....	
Charos Xudaynazarova. Normurod Norqobilov qissalarida dialektizmlarning qo'llanish xususiyatlariga doir	
Ozoda Sharapova. Gazeta tilida qo'llanilgan leksik sinonimlarning o'ziga xos xususiyatlari	
Ruziboyeva Gulnoza. X.Doniyorov badiiy asar tili va uslubini bir aspektda o'rganishning tadqiqotchisi va targ'ibotchisi sifatida.....	
Egamberdiyeva Sitorabonu. Iborai masdari-murodifi jumlai payravi muftado (dar asosi asari badei).....	
Эльвира Ибатова. Ориентализмы в описании общественно-политической жизни в русскоязычных газетах Узбекистана (на примере материалов «Народное слово», «Самаркандский вестник», «Правда востока»).....	
Iroda Saidova. 2008 yil umumta'lim maktablarida davlat dasturi asosida moddiy texnik bazasining rivojlanishi to'g'risida.....	
Farida Xolkazakova. O'zbekiston va rossiya o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlanishi.....	
G'ulomjon Yakubov. Yevropa ittifoqining tashkil etilishi tarixidan	
Севара Пардаева. Из истории первого музея туркестанского края	
Azamat Mardonov. O'rta asrlarda Movarounnahrda kon ishlarining rivoji.....	
Yigitali Umarov. Turkiston talabalarining XX asr 20-30-yillarda xorijdagi matbuotchilik faoliyati.....	
Sarvar Haydarov. O'zbekiston hududidagi dastlabki diplomatik munosabatlarning manbalarda aks ettirilishi.....	
Ilxom Fayzullayev Tabiatga estetik munosabatni kuchaytirishda estetik ong va madaniyatning funksional xususiyatlari	
Ilxom Fayzullayev. Tabiatga estetik munosabatni rivojlantirishda milliylik va umuminsoniylikning an'anaviylik hamda zamonaviylik jihatlari	
Zarnigor Yuldoshova. Konusda mujassamlashgan o'lchovlar Fur'e almashtirishining yig'ilishi haqida	
Inobat Ashirova. Silliqlik bo'lmagan yopiq chiziqlarda singulyar integral tenglama	
Шухрат Эгамбердиев. Функция Ляпунова или дискриминант Хилла.....	
Ислам Тагаев. О задаче Коши для системы уравнений Ламе в пространстве R^m	
Fayzullayev A. N., Payzillayev N. N., Yaqinlashish turlari va ularga doir natijalar.....	

Adxam Xasanov. Ma'lum silliqlikka ega funksiyalarni algebraik ko'phadlar bilan eng yaxshi yaqinlashtirish nazariyasining to'g'ri va teskari teoremlari haqida.....

Адхам Хасанов. О точных оценках наилучших приближений функций с выпуклыми производными удовлетворяющих условию липшица на конечном отрезке алгебраическими многочленами.....

Фарход Хамидов. Критерий разрешимости задачи Коши для систем уравнений теории упругости.....

Акмал Баракаев. Решение задачи переноса вещества в неоднородной пористой среде с учетом неравновесной адсорбции

Ma'mura Tadjiyeva Shahar ornitofaunasining shakllanish xususiyatlari va shahar landshaftida hamda tarixiy obidalarda qushlarning o'rni.....

Mohichehra Hayitova. Pomidor o'simligini biopreparatlar ta'sirida o'sishi va rivojlanish ko'rsatkichlari

Вероника Кадырова. Некоторые причины рождения детей с синдромом Дауна ...

Nurali Jo'rayev. Inert gazlarda garmonikalarni generatsiyalash.....

Акмал Шерматов. Расчет автоионизационных состояний атома кальция.....

Хуршид Исмаилов. Космогенный радионуклид ^7Be в атмосферных выпадениях 2015-2016 года в Самарканде

Otamurod Esanmurodov. Respublikamizning ayrim hududlari ichimlik suvi tarkibidagi ^{222}Rn miqdorini ssintilyatsion gamma-spektrometrik usul yordamida aniqlash

Shaxboz Shodiyev. Tuproqda Be^7 va Cs^{137} radionuklidlar to'planishini ssintilyatsion gamma-spektrometrik usuli yordamida aniqlash

Самандар Салимов. Радионуклиды в почвах юго-западных отрогов Зарафшанского хребта

Самандар Салимов. Радионуклиды в почвах урочища Сарыкуль (Самаркандский область).....

Садриддин Гиёсиддинов. Разработка и применение методики контроля радиоактивности питьевых вод в Ташкентской области

Турсунбой Солиев. Радиоактивность шлаков древних железоплавильных печей в Нуратинских горах

Gulchehra Xosilova. Samarqand shahri va uning atrofida Be-7 kosmogen radioaktiv izotopining mavsumiy taqsimotini o'rganish

Dilora Raxmonkulova, Mehriniso Parmanova. Bl-Lac Blazar obyektlari yorqinligi o'zgarishlarini o'rganish.....

Mehriniso Parmanova, Dilora Raxmonkulova. Faol yadroli galaktikalar.....

Alisher Ishankulov. Gomoveratrilamin bilan fenilalanin o'rtasidagi kondensatlanish va sikllanish reaksiyalarining borishini kvant-kimyoviy o'rganish.....

**INFORMATIKA FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL
USULLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

Husniddin Amrillayev

Mutaxassislik: 5A110701-Ta'limda axborot texnologiyalari (1-bosqich)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida, shu jumladan informatika fanini o'qitish jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib borishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunini bajarish maqsadida Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirliklari tomonidan qator me'yoriy hujjatlar va dasturlar ishlab chiqilib, qabul qilingan edi, shuningdek axborot tarmog'ini shakllantirish, axborot resurslarini yaratish va axborot kommunikatsion va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Buning natijasi sifatida keng ko'lamli islohotlarning muhim bo'g'ini – innovatsiyalar ham bugun har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham o'zining afzalliklarini namoyish qilmoqda. Hozirgi vaqtda «innovatsiya» tushunchasi juda keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya so'zi inglizcha so'z bo'lib, innovatsion yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir.

Ta'lim jarayonida, shu jumladan informatika fanini o'qitish jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib borishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Shu bilan birga o'quvchilarning interfaolligiga yo'naltirilgan darsning maqsadi esa, ularga imkon qadar ko'p faol imkoniyatlarga ega bo'lish, axborot texnologiyalari, shu jumladan kompyuterdan bevosita foydalanish va muloqot qilishga qo'yib berishdan iboratdir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. Chunki o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka olib kelishi hech kimga sir emas. Ta'lim usullarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqqan holda tanlash maqsadga muvofiq.

Ilgarigi o'qitish usullaridagi an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda informatika fanidan dars mashg'ulotlarini o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish lozimdir. Bu esa o'quvchilarning informatika fanini o'zlashtirish darajasi ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun esa:

- dars jarayonining oqilona tashkil etilishi;
- ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishi orttirib turilishi, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi;
- o'quv materiallarini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Bahs-munozara”, “Muammoli vaziyat” va “Rolli o'yinlar” kabi texnologiyalarning qo'llanilishi va ta'lim oluvchilarning amaliy mashqlarni mustaqil bajarilishi talab etiladi.

Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan yuqoridagi usullarni interfaol usullar bo'lib, ta'lim jarayonida bu usullar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun dars jarayonida ishtirok etadi. Bunday usulning foydali jihatlari

Magistrantlarning XVII ilmiy konferensiyasi materiallari. Samarqand – 2017-yil.

quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'quvchining ta'lim olish jarayonida samarali o'qib- o'rganishiga imkon yaratiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchining tashabbuskorligi qo'llab-quvvatlanadi.

Interfaol usullar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Informatika fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol usullardan foydalanishning asosiy bosqichini texnologik xarita tuzish tashkil etadi

Bunda o'tiladigan mavzu yuzasidan vazifalar:

- o'quvchilarga mavzu bo'yicha to'liq ma'lumotlar berish.
- o'quvchilarda izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirish, fikrlash doirasini kengaytirish, tartibli bardavomlikka mulohazakorlikka mayl uyg'otish.
- o'quvchilarda mavzuga doir mashqlarni yechishda darslik bilan mustaqil ishlash, masalalarni o'quvchilarning o'zlariga tuzdirish orqali informatikaga qiziquvchanligini oshirish, zukkolik va ziyrak tuyg'ularini rivojlantirish.

– mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali tarqatma materiallaridagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini oshirish amalga oshiriladi.

Bunda amaliy mashg'ulotning mazmuni: o'quvchilarga aqliy hujum, bahs-munozara uyg'unligidagi mavzuni tushuntirish davomida mavzu bo'yicha kerakli tushunchalarni bayon etish, masalalarni masalani yechish qoidalarini o'rgatish, shu qoidalar ustida ishlashni o'rgatish, savol-javob va musobaqa shakldagi topshiriqlarni bajarish ustida ishlash orqali yangi mavzuni mustahkamlashdan iborat bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasida esa aqliy hujum, bahs-munozara, musobaqa, amaliy mashg'ulot kichik guruhlarda, jamoada va individual ishlash, plakatlar, tarqatma materiallar, o'quvchilar tomonidan tuzilgan mavzuga oid misollar tayyor yozma materiallar, chizmalar plakatlar asosida tushuntiriladi. Shu bilan birga o'quvchilarning bilimi og'zaki nazorat, savol- javoblar, kuzatish, o'z – o'zini, o'quvchilarning bir – birlarini nazorat qilishi orqali tekshirilib, 5 ballik tizim asosida baholanadi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchi-o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Informatika fanidan amaliy mashg'ulotlarni interfaol usullar asosida tashkil etish natijasida o'qituvchi quyidagilarga erishadi:

- mavzuni qisqa vaqt ichida diqqatni jalb qiluvchi usullar yordamida o'quvchilar tomonidan tez o'zlashtirilishiga erishadi;
- faollikni, intiluvchanlikni oshiradi;
- o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'onadi;
- o'z oldiga qo'ygan maksimal maqsadiga erishadi

Informatika fanini axborot texnologilaridan foydalanib, interfaol usullar asosida tashkil etish jarayonida o'quvchi:

- yangi bilimlarni egallaydi;
- yakka va guruh bo'lib ishlash malakasini oladi;
- nutqi, muloqot ko'nikmasi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyatlari kuchayadi;
- o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi;
- qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi, ma'nan shakllanadi.

Magistrantlarning XVII ilmiy konferensiyasi materiallari. Samarqand – 2017-yil.

Informatika darslarida interfaol usullardan foydalanishning amaliy ahamiyati amaliy mashg'ulotlarda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish dars mavzusining muammoli masalalariga diqqatni qaratish imkonini beradi.

Informatika fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol usullardan o'z o'rnida samarali foydalanilishi, mashg'ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib berish hamda yoshlarni mustaqil ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o'rgatish bilan birga, fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishi, darsni ko'rgazmaliligini va tushunarligini oshiradi.

Adabiyotlar

1. Aminov I.B. Informatika va informatsion texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. 2005 yil. SamDU.
2. Aripov M. va boshqalar. Informatika, informatsion texnologiyalar (Bakalavr uchun o'quv qo'llanma) 1-2 qism. T., TDTU. 2003 y
3. Maraximova A.R., Raxmonqulova S. Internet va undan foydalanish. –T.: TDTY, 2001
4. www.ziyounet.uz.
5. www.intuit.ru.
6. www.titli.uz.
7. www.karsu.uz

Ilmiy rahbar- t.f.n. F.Nomozov

XUSUSIY INTEGRALLI PARABOLA KO'RINISHDA BO'LGAN KVADRATIK SISTEMANI TUZISH

Yuldosh G'aybulov (SamDAQI) Husniddin Amrillayev (SamDU)

Annotatsiya: Sistema analitik ko'rinishdagi integralga ega bo'lgan holda fazoviy tekislikning chekli va cheksiz uzoqlashgan qismida o'rganilgan.

Differensial tenglamalar sistemasi berilgan bo'lsin.

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = a_{10}x + a_{01}y + a_{20}x^2 + 2a_{11}xy + a_{02}y^2 = P(x, y), \\ \frac{dy}{dt} = b_{10}x + b_{01}y + b_{20}x^2 + 2b_{11}xy + b_{02}y^2 \equiv Q(x, y) \end{cases} \quad (1)$$

bu erda $a_{10}, a_{01}, b_{10}, b_{01}, a_{20}, a_{11}, a_{02}, b_{20}, b_{11}, b_{02}$ – o'zgarmas sonlar.

(1) sistema

$$\sum_{k=0}^2 F_k(x, y) = 0 \quad (2)$$

ko'rinishdagi xususiy yechimga ega bo'lsin, bu yerda $F_k(x, y)$ k-darajali birjinsli ko'phadlar. Xususiy holda yechimni parabola ko'rinishda

$$F(x, y) = y + a_1x^2 + a_2x + a_3 = 0 \quad (3)$$

olamiz. Bu parabola koordinata boshidan o'tmasin, ya'ni $a_3 \neq 0$.

(3) funksiya (1) sistema yechimi bo'lishi uchun

$$\frac{\partial F}{\partial x}P + \frac{\partial F}{\partial y}Q = FL \quad (4)$$

shart bajarilishi kerak, bu yerda $L(x, y) = px + my + n$ va p, m, n – o'zgarmas sonlar. (4) ga asosan

$$(2a_1x + a_2)(a_{10}x + a_{01}y + a_{20}x^2 + 2a_{11}xy + a_{02}y^2) + (b_{10}x + b_{01}y + b_{20}x^2 + 2b_{11}xy + b_{02}y^2) = \text{tenglik} \\ = (y + a_1x^2 + a_2x + a_3)(px + my + n).$$

hosil qilamiz. Bir xil koeffitsiyentli hadlarni tenglashtiramiz: